



"TASDIQLAYMAN"

"O'zbek geologiya qidiruv" AJ

Boshqaruv raisi

Sh.P.Alimov

2024 yil " 16 " dekabr

"O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati Xaridlar bo'yicha boshqarma bo'lim xodimlari ishtirokida o'tkazilgan o'quv seminar

15 - sonli BAYONI

2024 yil 14 dekabr

Toshkent shahri

Ma'ruzachi:

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'lim bosh mutaxassisi

Qatnashganlar:

Moliyaviy-iqtisodiy hisobotlar boshqarmasi xodimlari 10 nafar.

Seminar mavzusi.

1. "«O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyatida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi NIZOM.

2. O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining Axloq kodeksi

3. «O'zbek geologiya qidiruv» aksiyadorlik jamiyatida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma

1. Ushbu Nizom qoidolari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan xizmat vakolatlaridan qat'iy nazar Jamiyatining barcha xodimlariga tegishli.

Jamiyati xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq masalalar Jamiyatining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi va Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

manfaatlar to'qnashuvi – Jamiyati xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, Jamiyatining yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi – xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoki) Jamiyati bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlari) muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular Jamiyatining manfaatlariga qarama-qarshi bo'lishi va Jamiyati xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyat;

haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi – xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoki) Jamiyati bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy

manfaatlari (shu jumladan, shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari) Jamiyati manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshi bo'lgan vaziyat;



Jamiyati xodimlari o'zlarining xizmat majburiyatlarini bajarishida va Jamiyatining manfaatlarini ifodalashda ushbu Nizomda belgilangan tamoyillarga amal qilishlari, shuningdek, manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o'zlarini saqlashlari shart.



2. Kodeks davlat xizmatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo'lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda Aksiyadorlik jamiyati xodimlarining axloq qoidalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarining oldini olishga qaratilgan.

Xodimlar egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

- davlat xizmatining obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan tiyilish, axloq normalariga doimiy rioya qilish;
- lavozim majburiyatlarini zarur darajadagi kasbiy salohiyat va vijdonan bajarishi, o'z malakasini muntazam oshirib borish;
- hamkasblar bilan o'zaro samarali bilim almashish hamda ish yuzasidan yuqori darajada muloqot olib borishi, murakkab vazifalarni bajarishda hamkasblariga ko'maklashish;
- lavozim Yo'riqnomalarida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Aksiyadorlik jamiyatining ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan vakolati doirasida harakat qilish;
- xushmuomalalik, e'tiborlilik va hushyorlik bilan fuqarolarda davlatga nisbatan ishonch va hurmat hissini uyg'otish;
- mas'uliyat, kasbiga sadoqat va halollikni kundalik shiorga aylantirish;
- yuqori turuvchi organlar va mansabdor shaxslarning vakolatlari doirasida qabul qilingan (berilgan) qarorlar (topshiriqlar)ini o'z muddatida hamda sifatli bajarish;
- me'yoriy-huquqiy va ichki me'yoriy hujjatlar bilan o'rnatilgan cheklov hamda taqiqlarga, jumladan, korrupsion harakatlarga chek qo'yish;
- umumiy axloq qoidalari hamda axloq kodeksiga ishdan tashqari vaqtda ham amal qilishlari lozim.



3. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Aksiyadorlik jamiyati xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;

insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish;

xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash;

kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyotkorlik bilan qabul qilish.

Aksiyadorlik jamiyati Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, Aksiyadorlik jamiyati markaziy apparati bilan yoki tizimosti tashkilotlari bilan o'zaro shartnomaviy munosabatlar, kommunal va boshqa shu kabi xizmatlar va O'zbekiston Respublikasining tabiiy monopoliyalari hisoblangan kontragentlardan tashqari barcha yangi kontragentlarga nisbatan, shuningdek amaldagi kontragentlarga nisbatan kamida bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, Aksiyadorlik jamiyati markaziy apparati bilan yoki tizimosti tashkilotlari bilan o'zaro shartnomaviy munosabatlar, kommunal va boshqa shu kabi xizmatlar va O'zbekiston Respublikasining tabiiy monopoliyalari hisoblangan kontragentlardan tashqari, kontragent tekshiruv natijalari bo'yicha xulosani olmasdan turib shartnomani imzolash va to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.



Kontragentni tekshirish uchun ijrochiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:
kontragentning o'zi ushbu Yo'riqnomaga 1-ilovaga muvofiq shaklda
to'ldirgan yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;
kontragentdan olingan hujjatlar nusxasi (ushbu Yo'riqnomaga 2-ilova);
kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlari
(mavjud bo'lsa) nusxasi (*siyosatlar, nizomlar, hulq-ahloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi dasturlar va b.*).

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
bo'lim bosh mutaxassisi



Q. Majidov